

**MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA INGILIZ TILINI O'RGATISH JARAYONIDA  
AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI**

Olimjonova Gulnoza No'monjon qizi

*Guliston davlat universiteti "Xorijiy til va adabiyoti" yo'nalishi 2- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqola o'z ichiga maktabgacha ta'lism tizimi dasturi va ingiliz tilini o'qitish jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatli jihatlari haqida so'z yuritadi .

**Kalit so'zlar :** Axborot kommunikatsiya texnologiyalari , maktabgacha ta'lism tizimi, elektron do'ska , kompyuter , noutbuk , televizor .

Maktabgacha ta'lism - yoshlarimiz ta'limi va tarbiyasining ilk bosqichi hisoblanadi . To'g'ri maktabgacha tarbiya dasturi bizning bolalarimizga noyob aqlga mos keladigan tarzda o'sishi va o'rganishiga yordam beradi (1). Shuning uchun ham insoniyat kamolida asosiy o'ren egallaydigan fanlarga ushbu boshlang'ich ta'lism muassasalarida asos hosil qilinadi . Ushu turdag'i ta'lism muassasasining tarbiyalanuvchilariga sonlarni sanash , vatanimiz mathiyasini o'rgatish va shu bilan birgalikda , turli xildagi bir biridan ajoyib va qiziqarli she'rlar bog'cha opalar tomonidan yod olintiradi . Ko'rib turganingizdek , ushbu boshlang'ich bilimlar ularning keyingi bosqichlarda tez va osson tushinib keta olishlariga imkon beradi . Turli xildagi she'rlarga keladigan bo'lsak , bir qator she'rlar tarbiyalanuvchilariga dunyo qarashlarini kengaytirishga va tasavvur olamini boyitishga yordam beradi . Zeroki , tasavvur qila olish bu biron bir olingan bilimdan o'zlariga xulosa chiqarish olish qobiliyatidir . Ko'plab noyob bilim egalari , ilim olishni chuqurlashtirishdan ko'ra , insonlar tasavvur qila olish imkoniyatlarini kengaytirish va rivojlantirish afzalroq ekanligini takidlaydilar . Chunki , insoniyat tasavvur qilish orqali hozirda siz - u bizga tanish bo'lgan aqilbovar kashfiyotlarni amalga oshirishdi . Bo'g'cha yoshidan bolalarning tasavvur qila olish qobiliyatini oshirish esa ularning keyingi bilim o'rganish jarayonini tez va samarali bo'lishiga turki bo'ladi . Bundan tashqari , she'rlar yodlash orqali ular o'z xotiralarini charxlashadi . Ushbu she'rlardan turli xil ibora va so'zlarni o'zlarining tillariga ko'chirib olishib , gapga chechan va har qayerda o'z fikrini bera oladigan va ayta oladigan shaxs bo'lib yetishishadi . Yuqorida sanab o'tilgan bir qator bolajonlar ilmini rivojlantirishga yordam beradigan jarayonlar , shubxasiz , yurtimizga mustaqil fikr qila oladigan shaxslarni yetishtirib chiqrishda yordam berib kelmoqda .

So'ngi 10- 15 yillikda , maktabgacha ta'lism muassasi tarbiyalanuvchilariga , endilikda , sanash va turli xil she'rlarni yodlatishdan tashqari , ingiliz tilini o'qitish ham maktabgacha ta'lism muassasalarining o'quv rejasiga kirgan. Bu tilning naqadar zarirligini esa , dunyo adabiyotlarining 90%ini ingiliz tilida ekanligi to'g'risidagi jumla orqali izohlasak bo'ladi (2).

Lekin sizda quyidagicha savol yuzaga kelishi mumkin : nima uchun jajji bolajonlarni yoshlik chog'idan boshqa bir tilni o'rgatishimiz zarur ? , yoki o'z tilida yozish va hattoki o'qishni o'rganmasidan boshqa tilni o'qitib bolajolarga ma'naviy berish kerakmi ? va hokazo . Ammo , duyo olimlarining takidlashicha , chet tillarini o'rganish o'n yoshgacha bo'lgan bolalarda osson kechishini ta'kidlab o'tishgan . Bu davrda bola tilni tushinib emas , balki mehanik tarzda o'rganadi , shuning uchun xorijiy tilni qo'llash va talaffuz qilish osson kechadi (2) . Tarbiyalanuvchilar ingiliz tilini mukanmal darajada emas , balki turli xil o'simliklar , hayvonlar guruhi , oshxona jihozlari , o'quv qirollari kabi bir qator tarkibga bo'lib o'rganadilar . Bu esa ularga so'z boyliklarini ortib borishiga va talaffuz qilish imkoniyatlarini oshirishga imkon yaratib beradi . Shu orqali , ularda qismdan bo'lsada so'z boyligi shakillanib , 1- sinfga qadam qo'yanlarida ma'lum bir ma'noda qiyinchiliklarga uchrashmaydi . Chunki , ular bog'chalarda turli xil ingiliz tilidagi so'zlarni yod olish va aytib berish orqali , shu tilga bo'lgan adaptatsiya jarayoni shakillana boradi va ular maktabga borganlarida bu til ular uchun tanish va o'rganishiga osson bo'ladi .

Barchamizga ma'lumki , yurtimizda maktabgacha ta'lim muassasalarida taqsil olish majburiy emasdir . Bu muassasalarda ta'lim olayotgan o'quvchilar ingiliz tili to'g'risida ma'lum bir tushunchalarga ega bo'lishadi , ammo bunday ta'lim muassasalarida ta'lim olmaydigan bolalarning taqdira nima kechadi degan savol ham yuzaga kelishi mumkin. Buni hech qanday o'ylanadigan joyi yo'q , chunki yurtimizda bolajonlarga mo'ljallangan telekanallar mavjud . Shu telekanallarda bolajonlarga turli xil multfilimlarni ingiliz tilida ijro etishadi . Bu yo'l orqali esa ularda ham ingiliz tilida ma'lum ma'lumotga ega bo'lishadi . Televidinya , televizor so'zları esa sizning yodingizga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keltirishi mumkin . Axborot kommunikatsiya texnologiyalari , bugungi kunda , hayotimizning har bir jabhasida o'z o'rniiga egadir . Ta'lim tizimiga ham yetarli darajada o'z tasirini ko'rsatib ulgurdi . Bu qurulmalardan foydalanish orqali , ta'lim sifatini samarali bo'lishiga sabab bo'ldi. Maktabgacha ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga keladigan bo'lsak , Maktabgacha ta'lim tashkilotida axborot jamiyatining jadal rivojlanishi , bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini sezilarli darajada oshirish mumkin (3). Misol uchun elektron do'ska yoki komputer bilan yangi so'zlarining rasmlari bilan birga keltirib , ularning o'zi erkin , shu sur 'atga qaragan holda o'zları so'zlay boshlashadi . Bu jarayonida esa , so'z olishi qiyin bo'lgan o'quvchilar ham tezda yangi so'zlarni o'rganib olishadi va har bir darsda shu rasmlarni ko'rsatish orqali takrorlasa ham bo'ladi . Zeroki , takrorlash bilimning onasidir .

Hammamiz avvallari ko'rmagan narsamizga qarasak bor etiborimizni u narsa tortib oladi va biz bu narsadan boshqa narslarga e'tibor Bera olmaymiz . Huddi shunday faoliyat bolajonlarga ham notanish emas , shunki ular zamonaviy texnologiyalarga juda qiziqishadi , va har doim hammaning qo'lida , uyida shu kabi texnologiyalarga duch kelishadi , ammo ular yosh bo'lishganligi sababli , ularga foydalanish imkoniyati berilmaydi . Shuning uchun ham ular turli xil elektron doskalar va kompyuter , noutbuklardan foydalanishganda bor

e'tiborlarini shunga qaratishadi va shu bilan birgalikda ular ham eshitib , ham ko'rishda orqali 50% Dan ortiq bilim egallaydilar , ya'ni yangi so'zlarni .

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki , axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ingiliz tilini mактабгача ta'lim tarbiyanuvchilariga o'qitish jarayonida , ular so'zlarining tasvirlarini ko'rib , bor e'tiborlarini o'zlariga qiziq bo'lib tuyiladigan asboblarga qaratish orqali , ham so'zlarni erkin aytma olish va shu jarayondan zavqlanish imkoniyatiga ega bo'ladilar .

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. U.Usmonova ; " Maktabgacha ta'lim jarayonida xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy metodikasi ".
2. U.Usmonova ; " Maktabgacha ta'limda muassasalarida ingiliz tili ".
3. N.Ikromova ; " Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim -tarbiya jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash va ulardan foydalanish taraqqiyoti poydevoridir ".